



Faqat o'zingizni
o'zingiz farovon qila
olishingizga ishonib.
G'ayrat, shijoatingizga
ishonchni yo'qotmang.
Chetdan keladigan
muruvvatga
ishonmang

1913-yil aprel oyidan chiqq boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> https://twitter.com/zarnews_uz



YOSHLAR — do'stlik elchilari



Samarqand shahrida Markaziy Osiyo yoshlari do'stlik va mustahkam do'stnichilik forumi ish boshladi.

Forum Konrad Adenauer nomida jamg'arma boshchiligidagi konsorsium bilan hamkorlikda O'zbekiston "Yuksalish" umummilliy harakati, Qirg'izistonning "BIOM" ekologik harakati hamda Tojikistondagi "Gender va taraqqiyot" jamoat tashkiloti tomonidan amalga oshirilayotgan "Markaziy Osiyoda jamg'arma do'stlik va tinchlik yo'lida transchegaraviy ko'p tomonlama muloqot" loyihasi doirasida tashkil etildi.

Tadbir Markaziy Osiyo davlatlaridan yuzga yaqin yoshlar va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etmoqda.

Forumning ochilish marosimida "Yuksalish" umummilliy harakati raisi Bobur Bekmurodov, Samarqand shahar hokimi F. Umarov, Konrad Adenauer nomidagi jamg'arma loyiha rahbari Igor Briyatij va jamg'arma vakillari bugungi murakkab davrda dunyoda, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida yaqin do'stnichilik, do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish juda muhimligini ta'kidladi.

Loyihaning maqsadi — bag'rikenglik va hamjihatlik, radikallashuvning oldini olish, millatlararo nizolar sabablari haqida aholi xabardorligini oshirish, mahalliy fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, yoshlar tashabbuslari, ularning transchegaraviy muloqot ishtirokchilari bo'lishlari uchun imkoniyatlar yaratish, — deydi B. Bekmurodov. — Bu borada O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida o'zaro hamkorlik hamda ko'p tomonlama transchegaraviy muloqotni mustahkamlash ko'zda tutilgan.

Uch kunlik forum doirasida xalqaro debat turnirlari, ta'lim va axborot sessiyalari, yoshlar o'rtasida muloqot va hamjihatlikni rivojlantiruvchi transchegaraviy loyiha g'oyalari ishlab chiqish uchun "xakaton" o'tkaziladi.

Xalqaro ekspertlar ommaviy axborot vositalari va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillariga kibernetika va hiylalari berilmaslik, ijtimoiy tarmoqlardagi buzg'unchi g'oyalarga qarshilik ko'rsatish, ommaviy axborot vositalarida tinchlikparvarlik va bag'rikenglik g'oyalari targ'ib qilish yo'llarini tushuntirish. Shu asosida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikistonda "Dunyo elchilari" deb nomlangan yoshlar guruhi tuziladi.

TADBIRKORLARNI NIMA QIYNAYAPTI?

Viloyat hokimi E. Turdimovning tadbirkorlar bilan navbatdagi uchrashuvi Yoshlar markazida bo'lib o'tdi.

Bu galgi uchrashuvga uchun qatnashish uchun 94 nafar tadbirkor o'z faoliyatida duch kelayotgan muammolarga yechim izlab murojaat qilgan edi. Uchrashuvga 43 ta masala o'z yechimini topdi. Qabul davomida yana 36 tadbirkorning murojaati ko'rib chiqildi.

Masalan, Nurobod tumanidan kelgan tadbirkor Norquvvat Yo'ldoshev korxonasi balansidagi bir gektar yer maydonida faoliyat turini o'zgartirish yoki xaziraga qaytarish masalasida yordam so'radi.

Samarqand shahrida faoliyat yuritayotgan tadbirkor Orzimurod Valiyev esa kredit olishda amaliy yordam lozimligini bildirdi.

Biz 2019-yildan buyon o'z mablag'imiz hisobidan xususiy maktabgacha ta'lim tashkiloti ochish uchun qurilish ishlari olib boryapmiz, hozir pardo ishlari davom etmoqda, — deydi tadbirkor O. Valiyev. — Mablag' borasida yordam so'rab tijorat banklariga murojaat qildim, ular loyiham dasturga kiritilsa, 2 milliard so'mga cha kredit ajratish mumkinligini aytishgandi, ammo qog'ozbozlik va katta va'dalardan nariga o'tishmadi. Hozir faoliyatni yo'lga qo'yish uchun kamida bir milliard so'm kreditga muhtojim. Ikkinchi masalamiz, Samarqand shahar Qo'rg'oncha mahallasida 3 yil avval qurilgan suv quvuri eskirgan yoki teshilgan sababli suv ta'minotida yuzaga kelayotgan muammo bilan bog'liq edi. Birinchi masalam bo'yicha "Milliybank" biriktirildi va keyingi muammomiz Samarqand suv ta'minoti korxonasi tomonidan uch kunda bartaraf etiladigan bo'ldi.



Uchrashuvda tadbirkorlar kadastr, soliq, elektr energiyasi, kredit, noqonuniy qurilishlar, qurilishga ruxsat olish, yer maydonlarini auksionga qo'yish, tabiiy gazga ulanish, yo'l, anomal sovuqdan zarar ko'rgan korxonalarining kredit muddatlarini uzaytirish kabi masalalarda murojaat qildi. Har bir murojaat bo'yicha tegishli mas'ullarga aniq vazifalar berildi.

Tadbirkorning murojaati ortida inson taqdiri, mahsulot ishlab chiqarish, ish o'rni yaratishdagi qiyinchiliklar turibdi, — dedi

E. Turdimov. — Ayrim hududlarda tadbirkorni bittaga ko'paytirish, yangi ish o'rni yaratish oson bo'lmayapti, ammo ba'zi mas'ullarning vazifasiga beparvo munosabati tufayli yangi tashkil etilgan korxonalar bir talay muammolar qurshovida qolmoqda. Ayrim mas'ullar o'z ishiga beparvo bo'lishi ortidan ishbiarmon muammosiga yechim izlab idoralarda sarson bo'ladi. Har bir murojaat mutaxassislar tomonidan o'rganilib, vazifasiga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'lgan xodimga chora ko'riladi.

O. XUDOYBERDIYEV.

Samarqand viloyati hokimining QARORI

Xalq deputatlari viloyat Kengashining saxon uchinchu sessiyasini chaqirish to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan QAROR QILIMAN:

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchu chaqiriq saxon uchinchu sessiyasi 2023-yil 17-mart kuni soat 10:00 da chaqirilsin.

2. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin: - viloyatda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini kafolatli yetkazib berish va narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash to'g'risida; - boshqa masalalar.

Viloyat hokimi E. TURDIMOV

2023-yil 11-mart

Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgarish:

52-MODDA

Zamonaviy ta'limni faqatgina zamonga mos, maqomi baland, bilimi keng o'qituvchi bera oladi

Yangilanayotgan Konstitutsiyaning 52-moddasi o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishiga g'amxo'rlikni kafolatlaydigan norma hisoblanadi.

Umuman, Konstitutsiyaga o'qituvchilar bilan bog'liq modda kiritilayotgani - jamiyatda ushbu kasb egalari nisbatan yillar davomida shakllangan munosabati ijobiy tomonga o'zgartirish yo'lida tashlangan muhim qadamdir. Ishonch bilan aytishimiz mumkin, bu borada so'ngi yillarda salmoqli o'zgarishlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda o'qituvchilar majburiy mehnat — paxta terimi, obodonlashtirish ishlari jalb qilinmaydigan bo'ldi.

Ta'lim dargohlaridagi ortiqcha qog'ozbozlikka ham chek qo'yildi. Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari boshchiligidagi rahbarlar va fan o'qituvchilari 18 ta jadvallik hisobot va hujjatlarni o'ldirishi oqibatida asosiy ishlar - o'quvchilarga ta'lim berishga vaqt yetmasdi. Endilikda qonunchilikda belgilangan 6 ta ish hujjatidan boshqa hisobot va taqvimlar yuritilishi qat'iy man qilindi.

Yuksak salohiyatli o'quvchilarni tayyorlash ma'naviy boy va intellektual rivojlangan avlodni shakllantirish maqsadida Prezident, ijodiy va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilib, ta'lim sifatining ilg'or tajribalari qo'llanilmoqda.

Qog'ozbozlikdan ozod qilish, hisobotlarni qo'lga yozish, har bir dars bo'yicha har yili qayta-qayta ko'chiriladigan dars rejalarini qayta yozish va hozirgi kungacha qog'oz yozish uchun "Kundalik" elektron ta'lim platformasi joriy qilindi.

Va eng asosiysi, o'qituvchilarning

o'ylik maoshlari muttasil oshirib borilmoqda. Umumta'lim fanlari bo'yicha tegishli darajadagi sertifikatga ega bo'lgan pedagog kadrlarga har oy qo'shimcha 20 foizdan 50 foizgacha ustama to'lanadi. O'qituvchilarga imtiyozli iste'mol kreditlarini berish, olis hududlarda borib ishlayotgan pedagoglar uchun ustamalar belgilash joriy etildi.

Shuningdek, 2022-yil 1-sentabr-dan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalari kutubxonalari va "Bolalar kutubxonalari" xodimlarining lavozim maoshi miqdori 1,2 baravarga oshirildi.

Mazkur norma davlat organlari va boshqa tashkilotlarning pedagoglarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga, ularning mehnatga majburlanishiga, ta'lim-tarbiya jarayoniga to'sqinlik qilishning har qanday shakllariga, o'qituvchilarning huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarini ko'rishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan 685 mingdan ortiq o'qituvchining davlat tomonidan professional o'sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirilishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi va obro'sini yanada oshirishga olib keladi.

O'qituvchilarning obro'sini oshirish, qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligini ta'minlash kabi vazifalarning Konstitutsiyada belgilab qo'yilishi bolalarimizning sifatli va zamonaviy ta'lim olishiga, kelajakda farovon yashashiga xizmat qiladi.

G'ayrat ABDIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

MEHNATDAN SHUHRAT TOPGAN AYOL

Ko'pincha davlat mukofotiga sazovor bo'lgan opa-singillarimiz bilan suhbatlashish uchun borganimda ular hamon o'sha kafiyatda, bayram taassurida ekanliklari yuz-ko'zidan bilinib turadi. 8-mart arafasida mamlakatimiz rahbari qo'lidan "Mehnat shuhrati" ordenini qabul qilib olgan Mahbuba opa bilan suhbatlashishga borganimizda tamoman o'zgacha vaziyatga duch keldik. Opa maxsus nimchalarda, o'z ish joyida, ya'ni Samarqand shahridagi Buyuk Ipak yo'li ko'chasidagi obodonlashtirish ishlariga bosh-qosh bo'lib yurgan ekan. 30-40 chog'li ishchilar bilan birga daraxtlarni oqlab yurgani ustidan chiqdik.

Kechirasizlar, ishim shu, vaqt tig'iz, belgilangan ko'chadagi hamma daraxtlarni bugun oqlab bo'lishimiz kerak. Bahorgi yumushlarni bilasiz-ku, ob-havo qulay payti tezlik bilan bajarasang, keyin ulgurmay qolish mumkin, — deya uzroxo ohangda gap boshladi Samarqand shahar hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi farroshlar brigadiri, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibasi Mahbuba Normurodova. — Shuning uchun alohida kiyinib, intervyu berishga ilojim bo'lmadi-da.

Mukofotlanib qaytgach, ommaviy axborot vositalariga intervyu berishni kutgan va bunga alohida tayyorgarlik ko'rgan xotin-qizlardan farqli ravishda ishga sho'ng'ib ketgan opa bilan ish jarayonida suhbatlashdik.

— Avvaliga bu sohaga ishga kirishga uyalganman, — deya 15 yil avvalgi xotirlarni eslab gapiradi opa. — Ammo majbur bo'lganimdan so'ng "Ishlayman, qabul qilinglar", deb o'zim borganman. O'shanda rahbarimiz menga qarab "Siz bu yerda ishlay olmasangiz kerak", dedi. U payti yoshroq edim.

"Siz ko'rinishingga qaramang, hamma ish qo'limdan keladi", dedim menam bo'sh kelmay.

— Masalan, nima ish qila olasiz?

— Texnikaning barini tushunaman, traktormi, kombaynmi, hammasini hayday olaman, — dedim. U kishi "Rostdanmi? Unda yuring-chi", dedi-da, tashqarida o't o'rayotgan ishchilar yoniga olib bordi. O't o'rgich uskunani ko'rsatib, "Shuni ishlata olasizmi?", deb so'radi. Albatta, dedim. Keyin shu ishni bajarayotgan



ishchiga savol berdi:

— Bir kunlik rejang qancha?

U bir kunda amalga oshirishi kerak bo'lgan joyni ko'rsatdi. Shundan so'ng o't o'rgich uskunani olib, ishga kirishib ketdim. Boyagi ishchi bir kunda amalga oshirishi kerak bo'lgan joydagi o'tni ikki soatda o'rib chiqdim. Ishimni ko'rishga kelgan rahbar avvaliga ishonmadi, ammo yonimdagilar tasdiqlagach, so'zsiz ishga qabul qilindi. Shu-shu, mana, 15 yildirki sohada ishlayapman. Yillar davomida bizga alohida e'tibor berilayotganidan xursand bo'lamiliz. Ishga

kirgan paytim o'ylik maoshimiz 200 ming so'mdan boshlangan bo'lsa, hozir 2 million so'mga yaqin olamiz.

Mahbuba opa o'zi aytganiday, hamma texnikaning tilini tushunadi. Shuning uchun boshqarmaga berilgan motorollerni ham o'zi hayday, ishchilarga zarur uskunalarini tashiydi, ishni nazorat qilib boradi. Daraxt sho'xlarini tartibga solish, oqlash, o't o'rish, barcha tozalik ishlariga bosh-qosh.

— Oilamizda eng kenja qiz bo'lganim, akalaram bilan ulg'ayganim uchun, yoshligimdan texnikaga qiziqdim, — deya suhbatni davom ettiradi opa. — Bir akam haydovchi bo'lgani uchun u kishiga ergashib, traktor bormi, motosiklimi hayday ko'rganman. Beshinchi sinfda o'qiyotganimda onam bu olamni tark etgan. Uy-ro'zg'or ishlari biz, farzandlarning zimmasida qolgan. Harbiy bo'lishni orzu qilganman, afsuski, ikki yil hujjat topshirib, o'qishga kirolmaganman. Orada turmushga chiqdim, ketma-ket farzandli bo'ldim. Hayot bir tekis davom etmas ekan, oilamizda taqchillik yuzaga kelgach, ish qidira boshladim va nasibam ekan, obodonlashtirish boshqarmasiga farrosh sifatida ishga qabul qilindim, keyin brigadir bo'ldim. Shukur, to'rt nafar farzandimni halol mehnatimiz bilan o'stirdik, uyladik.

Mahbuba opa suhbat jarayonida ham ishidan uzilgisi kelmaydi, goh motorollerga minib, ishchilarga ohak yetkazar, goh ishni noto'g'ri bajarayotganlarga tanbeh berar, goh o'zi ham qo'shib, daraxt oqlashga kirishib ketdi. Ko'kchilar (gul parvarishi bilan shug'ullanayotganlar shunday atalarkan), farroshlar, texniklar — barchasining ishini yaxshi tushunib, ular bilan til topishib ishlayotgan opani ko'rib qolsangiz, rahmat aytib qo'yishni unutmang. Ular biz o'ylayotganday, oyligini olib, ishini bajarishga majbur farroshgina emas, mehnatini qadrlashimiz kerak bo'lgan yaqinlarimizdir.

Gulruh MO'MINOVA,
"Zarafshon" muxbiri.

AMERIKADA HAM QAYTIMGA QURUT BERISHSA, AJABLANMANG



Ha, bunday deyishga asosimiz bor. Sababi, bugun bu milliy mahsulotimiz nafaqat Osiyo va Yevropa davlatlariga, balki okean ortiga ham eksport qilinayotgan ekan. Xususan, viloyatimizning Ishtixon tumanida tayyorlanayotgan sara qurutlar allaqachon Rossiya va Amerika singari yirik davlatlarda o'z xaridorini topgan. E'tiborlisi, bu ishlarining ortida oddiy fuqarolar turibdi.

Ishtixonning Chinortepa mahallasida yashovchilar ayni kasbning hadisini olgan, desak mubohlag'a bo'lmaydi. Bir vaqtlar ro'zg'oridan ortgan sutni qayta ishlab, qurut qilib, bozorga chiqargan odamlar bugun tadbirkorga aylanib, mahalla ahlini ish bilan ta'minlamoqda.

— Hududimizdagi olti qishloqda 3700 nafar aholi istiqomat qiladi, - deydi Chinortepa mahallasi raisi Aktam Mahmudov. — Sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish mahallamizni rivojlantirish drayveri sifatida belgilangan. Lekin qurutlar asosan Chinortepa, Tabib hamda Kichik to'qmoq qishloqlarida tayyorlanadi. Chovli, Qalandarxo'ja va Ravot qishloqlarida istiqomat qiluvchilar qurutchilarga chakki yetkazib beradi. Shu tartibda umumiy ishdan barcha daromad qilmoqda.

Mahalla oqsoqolining aytishicha, hududda qurutchilik ishi bundan 25 yillar oldin, uyida chorvasi bo'lgan xonadonlarda boshlangan. Mahsulotning xaridori ko'payavergach, aholi qo'shni

qishloqlardan ham chakki sotib olishni boshlagan. Shu kunlarda hududda 20 ga yaqin xonadonda qurut tayyorlanadi. Xomashyo esa Surxondaryo, Buxoro va Navoiydan ham olinmoqda.

— Qurutlar shunchalik xaridorgirki, iste'molchilar talabini qondirish uchun tadbirkorlarimiz respublikaning qator viloyatlaridagi yirik chorvadorlar bilan shartnoma qilib, chakki sotib olishadi, - deydi mahalladagi hokim yordamchisi Asliddin Egamov. — Har bir xonadonda kamida 15-20 kishi doimiy ish bilan ta'minlangan. Bundan tashqari, tadbirkorlar aholi bilan kooperatsiya usulida hamkorlik qiladi. Ya'ni, xonadonlarga xomashyo yetkazib berib, tayyorlangan qurutlarni ma'lum haq evaziga olib ketadi. Hozir Tabib qishlog'ining 80 foiz, Chinortepaning 60 foiz hamda Kichik to'qmoq qishlog'ining 10 foiz aholisi shu ishga jalb qilingan. Tadbirkorlar bilan hamkorlikda kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan oilalarni ham qurutchilikka o'rgatayapmiz.

— 22 yildan beri shu ish bilan shug'ullanaman, - deydi "Nodirxon Agro produkt" ishlab chiqarish korxonasi rahbari Nodirxon Islomov. — Korxonada 100 nafarga yaqin xodim bor. Shuningdek, 20 ta xonadon bilan kooperatsiya usulida ishlaymiz. Tayyor qurut mahsulotlarini yurtimizning turli viloyatlariga sotamiz. Qolaversa, Qirg'iziston, Qozog'iston va Amerikaga ham eksportni yo'lga qo'yganmiz. Yaqin o'rtada yana bir korxonani ishga tushirib, qo'shimcha 100 ta ish o'rni yaratishni maqsad qilganmiz. Bundan tashqari, xalqaro darajadagi sifat sertifikatini olish arafasidamiz. Bu mahsulotimizning eksport geografiasini yanada kengaytirish imkonini beradi.

Biz shu va boshqa qurut ishlab chiqaruvchi xonadonlarda mehnat qilayotgan fuqarolar bilan



suhat qildik. Erkaklar asosan yuk tashish va chakini tayyorlash ishlarida band. Ular oyiga o'rtacha 2,5 million so'ngacha maosh o'lmoqda. Xotin-qizlar esa chakki shakli berish bilan shug'ullanadi. Ish beruvchi bir savat yumaloqlangan qurut uchun ularga 2 mingdan 3 ming 500 so'ngacha (nax qurut hajmi va shakliga qarab belgilanadi) haq beradi. Bizga tushuntirishlari bo'yicha bir ishchi mavsum vaqtida kuniga 30 tagacha savatni to'ldirishi mumkin ekan. Bu o'rtacha bir kunda 75 ming so'm degani. Kooperatsiya asosida ishlovchi xonadonlarda kuniga 70-80 kilogramm qurut

Bir mahalla – bir mahsulot

tayyorlanadi. Buning uchun ularga 140-160 ming so'm haq to'lanar ekan. Demak, ularning o'rtacha oylik daromadi 4,5 million so'm atrofida.

— Qurutchilar xonadonida ishlab aksariyat fuqarolarimiz uchun qo'shimcha daromad manbai hisoblanadi, - deydi Asliddin Egamov. — Sababi, ularda asosiy ish ham bor. Kimdir maktabda muallim, yana kimdir dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanadi. "Bir mahalla – bir mahsulot" tamoyilining qulay jihatlardan biri ham shunda. Ya'ni, bunday mahallalarda aholi ko'proq daromad qilish imkoniga ega bo'ladi. Buning uchun ularda xohish bo'lsa bas.

Hokim yordamchisining bildirishicha, ayni kunda hududdagi ishbilmonlarning faoliyatini qonuniylashtirish, qurut tayyorlash jarayoni-da belgilangan sanitariya talablari va boshqa me'yorlarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

— 12 ta tadbirkorning tegishli sertifikat olishiga erishdik, - deydi Asliddin Egamov. — Bu esa ularga ishlab chiqarishni yanada kengaytirib, mahsulotini hech qanday to'siqlarsiz xorijga eksport qilish imkonini beradi.



HUQUQIY MASLAHAT

KONTRAKT PULIDAN 12 FOIZINI QAYTARIB OLSAM BO'LADIMI?

- O'g'lim o'tgan yili institutni tugatdi. Naqd pulda amalga oshirilgan to'lov kontrakt pulidan 12 foiz soliqni qaytarib olsam bo'lar ekan. Buning tartibi qanday?

SH.O'ROLOV, Payariq tumani.

Soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati 5 yilni tashkil etadi. Shu bois to'rt yillik kontrakt pulidan soliqlarni qaytarib olishingiz mumkin. Bunda soliq organiga murojaat qilib, quyidagi hujjatlarni taqdim qilishingiz kerak:

Jami yillik daromadningiz to'g'risida ma'lumotnoma;

Farzandingiz to'lov shartnomasining nusxasi;

Kontrakt pulini haqiqatda to'laganligingizni tasdiqlovchi chek (*chekda sizning yoki turmush o'rtog'ingizning ism-familiyasi ko'rsatilgan bo'lishi shart. Agarda boshqa familiya ko'rsatilgan bo'lsa, imtiyoz qo'llanilmaydi*);

Farzandingizning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi;

Yoki my.soliq.uz orqali onlayn murojaat qoldirib, 12 foiz soliqni qaytarib olishingiz mumkin.

BIR DONA SIGARET 100 MING SO'MGA TUSHADI

- Yaqinda bir o'rtog'im jamoat joyida tamaki tutatgani uchun jarima-ga tortilganini aytib qoldi. Shunday bo'lishi mumkinmi?

Sherzod BOYTO'RAYEV, Urgut tumani.

Amaldagi tartiblarimizda tamakidan yoki uning o'rni bosuvchi narsadan tayyorlangan har qanday mahsulot iste'molini cheklash borasida me'yorlar mavjud.

Xususan, ish joylarida, sog'liqni saqlash, ta'lim, sport-sog'lomlashtirish muassasalarida, yong'in chiqish xavfi bo'lgan joylarda, shu jumladan, avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalarida va boshqa jamoat joylarida tamaki mahsulotini iste'mol qilish, bundan tamaki mahsulotini iste'mol qilish uchun maxsus ajratilgan joylar va xonalar mustasno, bazaviy hisoblash miqdorining uchdan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, mahalliy va uzoq masofaga qatnaydigan poyezdlarda, daryo kemalarida belgilanmagan joylarda, shahar atrofiga qatnaydigan poyezdlarning vagonlarida (shu jumladan, tamburlarida), shahar ichida, shahar atrofiga, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda qatnaydigan avtobuslarda, shuningdek, taksilarda, yo'nalishli taksilarda hamda shahar elektr transportida tamaki mahsulotini iste'mol qilish ham ayni shu tarzda jazolanadi.

PULINI BO'LIB TO'LAMOQCHIMAN...

- Tanishimning uyini kelishilgan narxda sotib olishga imkoniyatim yetarli emas. Sotuvchi bilan o'zaro kelishib, yetmagun pulni 9 oyda berishga kelishdik. Bu holatda notarius orqali oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirish mumkinmi?

N.XOLOV, Samarqand shahri.

Agar sotuvchi rozi bo'lsa, uy uchun to'lovni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan oldi-sotdi shartnomasini tuzish mumkin. Bunda uyni begonalashtirishga taqiq qo'yiladi (ya'ni sotish va hadya qilib bo'lmaydi).

Savollarga Kattaqo'rg'on shahridagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ayubxon QURBONOV javob berdi.

"Mahalla drayveri ko'paytirilsa, ishsiz aholi kamayadi"



Qo'shrabot tumani "Tinchlik" mahalla fuqarolar yig'inidagi hokim yordamchisi Oybek Do'satov mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish borasida ana shu tamoyil asosida ish olib bormoqda.

Mahalladagi 376 xonadonda 539 oila, 2241 nafar aholi istiqomat qiladi. Aholining asosiy qismi uzumchilik bilan shug'ullanadi.

— O'tgan yil mahalla faollari bilan kelishib, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz, oilaviy ahvoli og'ir 7 nafar fuqaro "Temir daftari"ga, 47 nafar xotin-qiz "Ayollar daftari"ga, 21 nafar yigit-qiz "Yoshlar daftari"ga kiritildi, - deydi Oybek Do'satov. O'tgan davr mobaynida 44 nafar fuqaroga 1 milliard 52 million so'm imtiyozli kredit berildi. 62 nafar fuqaroning bandligi ta'minlanib, 26 nafari kasb-hunarga o'qitilib, 117 kishi o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazildi.

Mahalla drayveri uzumchilik bo'lib, har bir xonadon yiliga 500 kilogrammdan ziyod mayiz oladi. Joriy yil hokim yordamchisi tashabbusi bilan mahallaning qo'shimcha drayverlaridan biri sifatida parrandachilik belgilanishi kutilmoqda. Chunki o'tgan yil tajriba sifatida 100 nafardan ziyod xotin-qizga 11 ming dona jo'ja, 6 nafariga 15 donadan tovuq, 3 nafariga g'oz, 9 nafariga o'rdak, 6 nafariga tuyaqush tarqatilgan.

— Oilamizda to'rt kishi ishsiz edik, subsidiya asosida 640 dona tovuq va inkubator apparati berildi, - deydi Tinchlik mahallasida yashovchi Sanobar Usmonova. — Tovuqlar 15-20 kunda tuxumga kirdi. Kuniga 600 donadan ziyod tuxum o'layapmiz. Oyiga 10 million so'ngacha daromad qilyapmiz.

— Mahalla drayveri ko'paytirilsa, ishsiz aholi kamayadi, - deydi O.Do'satov. — O'tgan yil parrandachilik yo'nalishidagi eksperiment natija berdi. Joriy yil ham bu yo'nalishda oldimizga ulkan vazifalar qo'yganmiz. Asosiy maqsad - mahallada oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash va aholining doimiy daromad manbaini shakllantirish.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Ichimlik suvi tarmoqlarida ilk bor cho'yan quvurlar ishlatilmoqda

Abu-Dabi Taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida amalga oshirilayotgan "Samarqand shahri infratuzilmasini modernizatsiya qilish" investitsion loyihasi bo'yicha Samarqand shahrida suv ta'minoti tizimlari va yo'l tarmoqlari modernizatsiya qilinmoqda. "Mesmer-east LLC" (O'zbekiston) hamda Turkiyaning "G'ulti In'saat" kompaniyalari amalga oshirayotgan mazkur loyiha bo'yicha 11,2 kilometr suv tarmoqlari quriladi. Jumladan, shaharning Amir Temur ko'chasining Bo'stonsaroy ko'chasidan Gagarin ko'chasigacha bo'lgan 2,3 kilometr qismida hamda Gagarin ko'chasida 8,9 kilometr ichimlik suv tarmoqlarining qurilish-montaj ishlari boshlangan.

— Ayni paytda Amir Temur ko'chasida ish olib borayotgan korxonamizning 40 dan ortiq ishchi va mutaxassislari, 26 ta maxsus texnikalar yordamida kuniga 50 metrga yaqin masofada kovlash va cho'yan quvurlar ko'mish ishlari amalga oshirilmoqda, - deydi "Mesmer-east LLC" xususiy korxonasi ish boshqaruvchisi Bekzod To'ychiyev. — Hozirgacha ishchilarimiz tomonidan ming metr dan ziyod masofada qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.

Samarqand shahrida suv ta'minoti tizimlari va yo'l tarmoqlarini modernizatsiya qilish jarayonida "Cho'pon ota" va "Dahbed" suv inshootlari hamda "Mo'liyon" nasos stansiyasi rekonstruksiya qilinadi. Bundan tashqari, 10 ta 2-bosqich va 3-bosqich nasos stansiyalari rekonstruksiya qilinib, yuqori va o'rtabosimli suv quvurlari almashtiriladi.

— Shahar hududi va ko'chalari past-baland joylashgan bo'lib, ish olib borishda o'ziga yarasha qiyinchiliklar tug'diradi, - deydi "Mesmer-east LLC" korxonasi geodezist-mutaxassisi Viktor Filatov. —

Shuningdek, ichimlik suv tarmoqlarining aksariyati o'z muddatini o'tab bo'lgan, gidravlik tizimning yetarli darajada ishlamasligi ichimlik suvini aholi xonadonlariga, qolaversa, ko'p qavatli uylarga bir me'yorda yetkazib berish imkonini bermaydi. Shu bois kommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirish, ichimlik suv ta'minotini yaxshilash bo'yicha ish olib boryapmiz. Loyihaga ko'ra, taraqqiy etgan davlatlardagi singari yurtimizda ham ilk bora ichimlik suvi tarmoqlari diametri D-500 mm. bo'lgan cho'yan quvurlar orqali tortilmoqda. Bu tez zanglovchi temir yoki bosimga chidamsiz bo'lgan plastik quvurlardan ancha afzal hisoblanadi.

Shuningdek, suv bosimini bir me'yorda ushlab hamda uzluksiz ichimlik suv bilan ta'minlash maqsadida barcha suv inshootlari hamda taqsimlash tugunlari to'liq energotejamkor nasos hamda jihazlarga almashtirilib, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizim tashkil etiladi.

Dilmurod TO'XTAYEV.



Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi va tuman-shahar bo'limlari tomonidan 2022-yilda 6,5 trillion so'mlik 541717 ta ijro hujjati yuzasidan 2,4 trillion so'mdan ortiq mablag' undirilib ta'minlandi.

Majburiy ijro harakatlari

qanday amalga oshirilmoqda?

Bu haqda MIB viloyat boshqarmasining 2022-yildagi faoliyati yuzasidan o'tkazilgan matbuot anjumani boshqarma boshlig'i Sur'at Jabborov ma'lum qildi.

— Aliment undiruvlari nafaqat Samarqandda, balki respublika miqosida muhim masalalardan biri. Negaki, viloyatimizda joriy yilning 1-yanvar holatiga aliment to'lovlarini undirish bilan bog'liq ijro hujjatlari 35396 tani tashkil qiladi, - dedi boshqarma boshlig'i. — 2022-yilda bu yo'nalishda amalga oshirilgan majburiy ijro tadbirlari natijasida qarzdorlardan 141,7 milliard so'mdan ortiq aliment pullari undiruvchilarga undirib berilgan.

Bu toifadagi ijro ishlari bo'yicha tegishli davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda olib borilgan profilaktik suhbatlar va chora-tadbirlar tufayli 7555 ta jufitlik yarashtirilib, oilalarning tiklanishiga erishildi.

Shuningdek, aliment undirish bilan bog'liq ijro ishlari bo'yicha ishsiz, yordamga muhtoj, og'ir ahvolga tushib qolgan aliment to'lovchi qarzdorlarning 2886 nafarining bandligi ta'minlanib, aliment undiruvlari ularning ish haqlarining ma'lum miqdoriga qaratiladi.

O'z navbatida aliment to'lovlarini to'lashdan muntazam ravishda bo'yin tovlab kelgan 1100 nafar qarzdor ma'muriy, 139 nafari esa jinoyi javobgarlikka tortildi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojining bazaviy asoslaridan biri - bank kredit siyosatini takomillashtirish, kredit qayturi va aylanmasi tizimini barqarorlashtirish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. 2022-yil davomida byuroning viloyatdagi organlari tomonidan banklar foydasiga undiruvlar bilan bog'liq 1,9 trillion so'mlik 34622 ta ijro hujjati bo'yicha ijro harakatlari amalga oshirilgan va amalda 499,6 milliard so'm undirilgan.

Byuroning viloyat boshqarmasi organlari ish yurituvida hududga ta'minoti korxonalarini foydasiga qarz undiruvlari bilan bog'liq 10 milliard so'mlik 488 ta, elektr tarmoqlari korxonalarini foydasiga 21,5 milliard so'mlik 414 ta ijro hujjati mavjud. Shundan gaz ta'minoti korxonalarini foydasiga 246 ta ijro hujjati bo'yicha 1,9 milliard so'm, elektr tarmoqlari korxonalarini foydasiga 149 ta ijro hujjati bo'yicha 2,1 milliard so'm qarzdorliklar undirilgan.

Hisobot davrida 24 nafar xodim xizmatdan bo'shatilgan, 48 nafar xodimga ixtisomiy jazo qo'llanilgan, 98 nafar xodim attestatsiyadan o'tkazilib, 3 nafari vazifasiga noloyiq deb topilgan va 3 nafari sinov muddati berilgan.

Hududlarda profilaktik hisobda turgan hamda tarbiyasi og'ir yoshlar qalbida harbiy-vatan-parvarlik tuyg'usini shakllantirish, ularni kasb-hunarga o'qitish maqsadida yangi loyiha amalga oshirilmoqda.

"Jasorat maktabi"

"Jasorat maktabi" deb nomlangan mazkur loyiha doirasida Samarqand shahridagi Qurolli Kuchlar kichik mutaxassislarini tayyorlash markazida navbatdagi o'quv yig'ini o'z faoliyatini boshladi. Unda viloyatning barcha shahar va tumanlaridan kelgan 100 nafar yosh ishtirok etmoqda.

Yig'inda yoshlar uchun malakali mutaxassislar tomonidan kasb-hunar va tadbirkorlik sirlarini o'rgatish bo'yicha motivatsion treninglar, mahorat darslari tashkil etiladi.

O'quv yig'ini birinchi kunidayog'ida juda katta taassurotlarga ega bo'ldim, - deydi bulung'urlik Eldorbek Sattorov. - Harbiy forma kiydik, tibbiy ko'rikdan o'tdik. 10 kun davomida kerakli bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallab, ishli bo'lishni niyat qilganman. Bu yerda biz ham hunar o'rganish, ham madaniy xordiq chiqarish imkoniyatiga ega bo'lar ekanmiz.

Yig'in doirasida psixologik mashg'ulotlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, saf va jangovarlik tayyorgarlik, kino-filmlar namoyishi hamda Samarqand shahrining diqqatga

sazovor joylariga sayohatlar uyushtiriladi.

Yig'in yakunida ishtirokchilarga ishga joylashish va tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari uchun maxsus sertifikatlar taqdim qilinishi rejalashtirilgan.

Charos SAIDOVA,
Jasurbek SHUKUROV (surat).



Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksiga kiritilgan

yangi me'yorlar muhokama qilindi

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi viloyat kengashida respublika Metallurgiya va mashinasozlik sanoati tarmoqlari kasaba uyushmasi tomonidan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi muhokamasiga bag'ishlangan seminar tashkil etildi.

Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyatlaridagi boshlang'ich tashkilotlar raislari, faollari va tizimdagi korxonalar, tashkilot, muassasalar mutaxassislari ishtirok etgan seminarlar tarmoq kasaba uyushmasi respublika kengashi maslahatchisi J. Roziqov, tarmoq kasaba uyushmasi Samarqand viloyat hududiy kengashi raisi O. Mirzayev yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi, unga kiritilgan mehnat muhofazasiga oid me'yorlar xususida ma'lumotlar berdi.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida xodimlarga sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, ish o'rinlarini attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha bir qator yangiliklar kiritilgan, - deydi viloyat kengashi mehnat texnik inspektori



Usmon Karimov. - Ayniqsa, kasb kasalliklarining oldini olish, mehnat muhofazasi va xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda kasaba uyushmalari faoliyatining samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat berilgan.

D.O'TAMURODOV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

OGOHO BO'LING, MAGISTRAL GAZ QUVURLARI!

Magistral gaz quvurlarining muhofaza zonasida xavfsizlik choralari ko'rish g'oyatda muhim. Viloyatimizning Narpay, Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Oqdaryo, Nurobod, Payariq tumanlari hududi bo'ylab aholi punktlari va sanoat korxonalarini tabiiy gaz bilan ta'minlovchi, yuqori bosimga ega magistral gaz quvurlari yotqizilganligini hisobga olsak, masala kundek ravshan. Shu sababli hamyurtlarimizni ogohlikka chorlaymiz.

Eksploatatsiyaning normal sharoitini ta'minlash va quvurlarning shikastlanishiga (ularning har qanday o'tkazilishidan qat'i nazar) yo'l qo'ymaslik uchun "Magistral gaz quvurlari himoya qoidalari" va O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 69-moddasiga asosan, muhofaza hududlari belgilangan. Magistral gaz quvurlari tarkibiga gaz quvurlari, gaz taqsimlash shoxobchalari, kran tugunlari, kompressor stansiyalari, elektr kimyoviy himoyalash uskunalar (EHZ), yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari (LEP), aloqa texnologiyasi inshootlari va uzatgichlari, gaz quvurlari trassasi bo'ylab yotqizilgan yo'llar, gaz quvurlarini bildiruvchi va tanituvchi belgilar kiradi.

Quvurlarning muhofaza hududiga kiruvchi maydonlar yerdan foydalanuvchilardan olib qo'yilmaydi. Ular mazkur maydonda faqat magistral gaz quvurlarini muhofaza qilish qoidalari qat'iy rioya qilgan holda qishloq xo'jaligi yoki boshqa turdagi ishlarni olib borishlari mumkin. Quvurlar yotqizilgan hududda turarjoy mavzolari, aholi punktlari, sanoat, qishloq xo'jaligi korxonalar, imoratlar (turarjoy va noturarjoy binolar) qurilishi O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tasdiqlagan me'yorlarga ko'ra, magistral gaz quvurlari loyihalashtirishning qurilish normalari va qoidalari bo'yicha gaz quvuridan bino yoxud inshootgacha bo'lgan eng kam masofaga qat'iy rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Quvurlarning muhofaza hududida quvurlardan me'yorida foydalanishga xalaqit beruvchi yoki ularga shikast yetkazuvchi har qanday turdagi ishlar taqiqlanadi. Xususan:

- har qanday qurilish ishlarini olib borish, inshootlar tiklash;

- har xil turdagi daraxt va butalarni ekish, yem-xashak, ozuqa, o'g'it va materiallarni to'plash, pichan g'amlash, ot bog'laydigan qoziqlarni joylashtirish, chorva mollarini saqlash, baliq yetishtirish uchun uchastkalar

ajratish, baliq hamda boshqa suvda yashovchi va suzuvchi hayvonlar va parrandalarni parvarishlash, jonivorlar uchun suv ichadigan hovuzlar qurish, muzni yorish va tayyorlash ishlarini amalga oshirish;

- quvur trassasi ustidan o'tish va kesib o'tish inshootlarini qurish, traktor va boshqa mexanizmlar uchun saqlash joylarini barpo etish, jamoat bog'lari va polizlarini joylashtirish;

- turli xil qurilish-montaj, portlatish va tog' ishlarini amalga oshirish, tuproq (grunt) ni rejalashtirish;

- melioratsiya ishlarini amalga oshirish, sug'orish, quritish tarmoqlarini qurish;

- nazorat-o'lchov quduqlari, nazorat punktlari, signal beruvchi, ogohlantiruvchi belgilarni buzish, joylarini o'zgartirish;

- kabel aloqasi xizmat ko'rsatmaydigan tovush kuchaytiruvchi punktlar qopqoqlarini, lyuklarni, katod himoyasi stansiyasi, tarmoq va nazorat qiluvchi quduqlar hamda boshqa tarmoq qurilmalarini, zulf va jo'mraklarni ochish, aloqa vositalari, quvur energiya ta'minoti va telemexanikasini yoqish, o'chirish;

- belgilangan hududda turli xil chiqindi to'plamlarini yig'ish, yerga ishqorlar, tuzlar, kislotalar eritmalarni to'kish;

- quvurlarni buzilishlardan, yon-atrof va yaqin joylashgan hududni, transportirovka qilinadigan mahsulotni avariya natijasida to'kilishdan saqlovchi, yer osti suvini o'tkazuvchi inshootlarni, qirg'oqlarni mustahkam tutuvchi qurilmalarini buzish;

- olov yoqish yoki shunga o'xshash ochiq-yopiq olov manbalarini uyushtirish;

- himoya hududlarida su'niy havzalar va sholi ekinlarini ekish man etiladi.

Magistral gaz quvurlari himoya qoidalari-ni buzilishida aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra javobgarlikka tortiladilar.

Muhofaza hududi:

- quvur trassasi bo'ylab xavfsizlik yer uchastkasi ko'rinishida, quvur o'qining har

tomonidan 50 metrgacha masofada shartli chiziqlar bilan chegaralangan bo'ladi;

- qishloq xo'jaligiga taalluqli yerlardan himoya maydoni quvur o'qining har tomonidan 25 metr masofada o'tadigan shartli chiziqlar bilan chegaralanadi;

- ko'p tarmoqli trassa bo'ylab chekka quvur o'qining har tomonidan 50 metr masofada o'tgan, shartli chiziqlar bilan chegaralangan yer maydoni ko'rinishidadir.

Gazdan kondensatni ajratish va saqlash uchun sig'imlar atrofida neft, kondensat va siqilgan uglevodorodlarni avariya holatida chiqarish uchun yer omborida ko'rsatilgan ob'ektlar maydoni chegarasida har tomoniga 50 metrdan tutashgan chiziq bilan chegaralangan uchastka ko'rinishida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida "Qurilish me'yorlari va qoidalari" QMQ 02-05-06/97 me'yoriy hujjat asosida magistral gaz tarmoqlari atrofida quvurlar diametriga mos holda muhofaza hududlari belgilangan.

Belgilangan xavfli hudud radiusi:

- diametri 300 mm.gacha bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 100 metr;

- diametri 300 mm.dan 600 mm.gacha bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 150 metr;

- diametri 600 mm.dan 800 mm.gacha bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 200 metr;

- diametri 800 mm.dan 1000 mm.gacha bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 250 metr;

- diametri 1000 mm.dan 1200 mm.gacha bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 300 metr;

- diametri 1200 mm.dan yuqori bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 350 metrni tashkil etadi.

Shuningdek, gaz taqsimlash shoxobchalari har tomondan himoya hududi (muhofaza hududida har qanday ishlarni olib borish taqiqlanadi) 150 metr qilib belgilangan.



Shuning bilan birgalikda, aholi e'tiborini qo'yidagilarga qaratmoqchimiz:

Davlatimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatiga ko'ra, aholi tomonidan tegishli mahalliy hokimiyatlar ruxsatisiz qurilib, hozirda aholi istiqomat qilib kelayotgan ayrim uy-joylar ham tegishli hujjatlar orqali egalari mulk sifatida rasmiylashtirilib berilmoqda. Lekin magistral gaz quvurlarining xavfli hududida, boshqacha aytganda, "Qizil hudud" ichida qurilgan noqonuniy imoratlar uchun bu yengilliklar tatbiq etilmaydi va bunday imoratlar buzib tashlanishi kerak bo'ladi.

Asosiy maqsadimiz fuqarolarimiz xavfsizligini ta'minlash, kelib chiqishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalar va avariya holatlarining oldini olish uchun. Ogoh bo'ling, azizlar!

Aziz hamyurtlarimizning yer uchastkalari yoki dehqonchilik qilayotgan yer maydonlari magistral gaz quvurlari yaqinida joylashgan

bo'lsa, biror turdagi qurilish ishlarini boshlashdan oldin ushbu gaz quvurlariga xizmat ko'rsatuvchi boshqarmaga murojaat qilib, ish ko'rish tavsiya etiladi. Bu holda fuqarolarimiz o'zboshimchalik bilan qurilgan noqonuniy imoratni buzilishi bilan bog'liq ortiqcha asab-buzarlik va keraksiz moddiy chiqimlardan xoli bo'ladi.

Boshqarmamiz manzili: Narpay tumani Oqtosh shahri, Muqimiy mahallasi. Telefonlar: +99866-432-41-91, +99893-172-22-47.

Sherqul ORZIYEV,
"Zirabuloq Magistral gaz quvurlari" boshqarmasi boshlig'i.
Iskandar SHUKUROV,
Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi Samarqand hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi.

DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Eshankulov A'zamga (1992-yil 25-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Abdunaimova Sobikaga (2015-yil 15-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Mirzayev Saydirasul Pulatovichga (2022-yil 26-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno

Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Ashirov Shamirza Abdvasiyevichga (2022-yil 20-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Rasulkulov Eshankulga (2020-yil 1-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasida

marhum Xujakulov Orif Raximovichga (2022-yil 8-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagariy ko'chasi, 60-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Nurullayev Baxtiyorga (2020-yil 20-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 41/100-uy.

TOPGANGA MUKOFOTI
Fuqaro Raufov G'ayrat Muxlisxonovichning shaxs guvohnomasi (AD 2572826, 14.02.2023-yilda berilgan), haydovchilik guvohnomasi (AF 0785753, 28.05.2019-yilda berilgan) hamda Raufov G'ayrat Muxlisxonovichga qarashli davlat raqami 30 V 494 TA bo'lgan "LASETTI" rusumli avtotransport vositasining texnik pasporti (17.12.2022-yilda berilgan) Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatlarni topganlardan mu-

"SAMARQAND DILLER RIELTOR SERVICE"

mas'uliyati cheklangan jamiyati muzokaralar o'tkazish yo'li bilan tashkil etiladigan ommaviy ofyorta savdolariga taklif etadi.

1. Savdoga "TEPAQISHLOQ AGRO TEX SERVIS" agrofirmani mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining 2023-yil 7-fevraldagi 2-sonli umumiy yig'ilish bayoniga hamda murojaat xatiga asosan jamiyatga qarashli, Toyloq tuman "Tepaqishloq" MFY, Urtaqishloq qishlogida joylashgan qurilish osti maydoni 580,27 kv.metr, foydali (ichki) maydoni 514,32 kv.metr bo'lgan "Garaj binolari" qo'yilmoqda. Boshlang'ich bahosi - 41 015 462 (qirq bir million o'n besh ming to'rt yuz oltmish ikki) so'm.

Muzokaralar o'tkazish yo'li bilan tashkil etiladigan ommaviy ofyorta savdolari ushbu mol-mulk matbuotda e'lon qilingan

sanadan boshlab, ish kunlari (dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba va juma kunlari) o'tkaziladi.

Savdolarda ishtirok etish uchun talabgorlardan aksept arizalari mazkur mulk sotilgunga qadar qabul qilinadi. Aksept arizalar qabul qilish mulk sotilganda yoki savdodan olingandan keyin to'xtatiladi.

Savdo o'tkaziladigan manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 91-"A" uy. Murojaat uchun telefonlar: +99866-234-36-50, +99891-522-74-09.

Xizmatlar litsenziyalangan.

kofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99898-573-97-17.

BEKOR QILINADI

Sotuvchi "SURAYO CONSTRUCTION" MChJ nomidan ishonchnomasi asosida Abdulkaxarov Refkat Eldarovich va sotib oluvchi Kayumov Zulfikor Mirza-Maxmudovichlar o'rtasida "SURAYO CONSTRUCTION" MChJ-ga tegishli bo'lgan Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 3-uyda joylashgan savdo va maishiy

xizmat ko'rsatish ob'yekti tarkibidagi yer-to'laning 3-raqamli xonasi uchun "Sag'diana real servis" MChJda to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish yo'li bilan tashkilashtirilgan savdoning 94-sonli bayonnomasi asosida 2022-yil 6-avgustda tuzilgan ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "SAYOH TOURISM AND LOGISTIC SERVICES" mas'uliyati cheklan-

gan jamiyatining (STIR: 310134888) burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahar hokimining uy-joylarni hisobga olish, taqsimlash va almashtirish boshqarmasidan 2003-yil 27-martda Samarqand shahri Avtovazagregat (Ro'ziboyev) ko'chasi, 4-uy, 24-xonadonni Sadullayev Komilga tegishli ekanligini tasdiqlovchi 21837 raqamli davlat dalolatnomasining asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

“Zarafshon” gazetasi 110 yilligi oldidan

“ZARAFSHON” – SO‘Z DARYOSI

Samarqand haqida o'ylaganimda o'tashnafas shoirimiz Hamid Olimjonning quyidagi misralari yodimga kelaveradi:

Zarafshonni loylatib kechgan Chavandozlar bordir bu elda.

Nega deysizmi? Chunki Samarqandga qaysi tarafdin kelsangiz ham Zarafshon daryosi yoki uning biron irmog'i orqali kirasiz. Shu bois Zarafshonni ma'lum ma'noda Samarqandning ramziy timsoli, deiysh mumkin.

O'zbekistonimiz mustaqillikka erishganidan keyin respublikamizda nashr etiladigan aksariyat gazeta va jurnallarning nomi o'zgardi. Shular orasida eng muvaffaqiyatli chiqqanlaridan biri meningcha, "Zarafshon"dir. Sho'ro davrida "Lenin yo'li" nomi bilan chiqqan viloyat gazetasi istiqloldan keyin "Zarafshon" deb atalgani jug'rofiy jihatdan ham, mantiq nuqtai nazari-dan ham nihoyatda to'g'ri, adolatlil bo'ldi. Bu fikr, bu tashabbus kimdan chiqqan bo'lsa ham o'tasiga ming rahmat! Zero, gazeta ham misoli bir daryo, so'z daryosi. Daryo ro'yi zaminga, insoniyatga obi hayot olib kelsa, gazeta jamiyatga, insoniyatga ma'naviy, ruhiy ozuqaga beradi. Daryo tabiat va insoniyatning zohiriy kirini tozalasa, gazeta jamiyat va insoniyatning botiniy kirini tozalaydi, qalbiga nur bag'ishlaydi, dunyoqarashini o'zgartiradi, ko'zini ochadi. Daryo goh sokin oqadi, gohida to'lib-toshadi, pishqiradi, hayqiradi. Va odamlarni hushyor bo'lishga majbur qiladi. Gazeta ham yaxshi, yoqimli so'zlar bilan odamlar diliga orom beradi, ba'zan jamiyat, insonlar hayotidagi kamchiliklar, illatlar, nuqsonlar haqida achchiq so'zlar aytadi, bong uradi. Bu bilan odamlarni kamchilik va nuqsonlarga nisbatan befarq bo'lmaslikka, adolatlil, haqiqatparvar, muhimi, elsevar bo'lishga da'vat etadi. Ayon bo'lal-diki, daryo va gazetaning vazifasi mohiyatan uyg'un.

Shularni o'ylaganimda ota yurtim Samarqandimning ikki Zarafshoni bir-birini to'ldirib, bir-birini qo'lab-quvvatlab kelayotgandan mamnunlik tuyaman, ko'nglim ravshan tortadi.

Shoir Zarafshon daryosini loy-latib kechgan chavandozlar haqida so'z yuritgan. Buyuk shoirimizning ruhi oldida ta'zim qilib, izn so'ragan holda "Zarafshon" gazetasi "loylatib kechgan chavandozlar"ning ayrimlarini eslab o'tishni lozim topdim.

Men bu gazeta bilan o'quvchilik yillarimdan do'stman, hamkorman. Gazeta tahririyatida turli lavozimda ishlagan Nuriddin Shukurov, Ahmadjon Muxtorov, Mardi Nuriddinov, Samariddin Sirojiddinov, Sur'at Oripov kabi olim, shoir va yozuvchilar bilan ko'p muloqot qilganman, ustozlarning maslahat va yo'l-yo'riqlaridan bahramand bo'lganman, tengdoshlarim bilan adabiyot, jurnalistika, umuman, hayot haqida bahs-munozaralar qilganmiz. O'quvchilik davrimda gazetada kaprtarning patidek xabarim chiqsa, hatto tahririyatga jo'natgan "maqola"nga tahririyat blankasida yozilgan va tahririyat konvertiga solingan javob xati kelsa (u paytlarda tahririyatlarga keladigan har bir xatga, hajmi, janridan qat'i nazar, javob yozilar edi), osmonlarga uchuguday suyunib, yeru ko'kka sig'may yurganlarim hamon yodim-da... Bu gazeta, bu tahririyat bilan bog'liq taassurotlarim bir olam...

Taqdir taqozosi bilan Toshkentda o'qidim va shu yerda yashab qoldim. Qachon Samarqandga yo'lim tushsa, to'g'ri "Zarafshon" ("Lenin yo'li") tahririyatiga borar edim. U yerda mening sinfdosh jo'ram Asad Dilmurod ishlardi. Asad orqali tahririyatdagi boshqa xodimlar, jumladan, Nusrat Rahmatov, Sur'at Oripov, Abdusodiq Murtazoyev, Abdurashid Abdurahmonov, Habib Temirov, G'ulom Aliyev singari yozuvchi va jurnalistlar bilan tanishganman. Nusrat Rahmat bilan keyinchalik "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi tahririyatida birga ishladik. Sakson yoshdan oshganiga qaramay, hamon faol ijod qilayotgan bu adib akamizning ijodiga ham, oilasiga, turmush tarziga ham havasdaman. Alloh umrini uzoq qilsin.

Asad tahririyatdagi faoliyatini musahhihlikdan boshlab, mas'ul kotib darajasigacha bordi. Nuriddin Shukurovday adabiyot bilimdoni, Ah-

madjon Muxtorovday fidoyi jurnalist rahbarligida ishlagani Asad uchun o'ziga xos ijod maktabi vazifasini o'tadi. Natijada Asad bir qator publitsistik maqolalar, o'nlab hikoyalar, qissalar va bir necha roman yozdi. Uning tarixiy mavzudagi hikoyalari, qissalari, Pahlavon Muhammad, Mahmud Tarobiy kabi tarixiy shaxslar haqidagi romanlari o'quvchilar va adabiyotshunoslar e'tiboriga sazovor bo'ldi.

Qisqacha aytganda, Asad Dilmurodning ijodiy faoliyati shakllanishida "Zarafshon" tahririyati o'ziga xos maktab vazifasini o'tadi. Bu maktabdan Asaddan oldin va undan keyin ham ko'plab ijodkorlar chiqqanini bugun iftixor bilan ta'kidlaymiz.

Aksariyat bosma nashrlar taqdiri qil ustida turgan bugungi kunda ham "Zarafshon" o'z pozitsiyasida qat'iy turibdi. Viloyatda amalga oshirilayotgan keng ko'lami yangilik va o'zgarishlarni targ'ib qilish barobarida aholini qiyayotgan muamolarini ham dadil ko'tarib chiqayotir. Shu ma'noda "Zarafshon"ni Samarqand viloyati hayotining ko'zgusi, deiysh mumkin.

Bunga erishish hozirgi davrda oson emas. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, taniqli shoir Farmon Toshev rahbarligidagi jamoa ana shu qiyinchilik va mashaqqatlarni to'la his etgan holda gazetaning bir asrlk an'anasi, yo'li va uslubini saqlab qolish, nainki saqlash, balki uni zamon ruhi bilan boyitish uchun, gazeta davr bilan hamqadam bo'lishi bilan kifoyalanmay, davrdan loqaqal bir qadam oldinda yurishi uchun fidokorona xizmat qilmoqda.

Darvoqe, bu yil mamlakatimizdagi oqsoqol nashrlardan bo'lgan "Zarafshon" 110 yoshga to'libdi! Muborak bo'lsin! Gazetaning ham, uni bugungi talabchan, nozik didli o'quvchilarga manzur qilish uchun ko'z nurini, aql-zakovatini ayamay mehnat qilayotgan jurnalistlar, texnik xodimlar, jamoaning barcha a'zosisning umri uzoq, doimo el-yurt ardog'ida bo'lsin! Ularni qutlug' to'y bilan chin qalbmizdan muborakbod etaman. Alloh sizlarga kuch-quvvat, so'nmas ilhom, jasorat va sabr bersin, aziz hamkasblar!

Mamatqul HAZRATQULOV.

Ma'rifat

"O'quvchining otasi o'qituvchini kaltakladi", "O'quvchilarini urgan o'qituvchi ishdan olindi", "Prokuror maktab hududini tozalagan o'qituvchilarga dashnom berdi"...

Keyingi paytda ijtimoiy tarmoqlarda shu mazmundagi xabarlarga tez-tez ko'zimiz tushyapti. Bu xabarlarga munosabat, izohlar ham turlicha:

"Maktab davrida bizga ham o'qituvchimiz dakki bergan, ayrim paytda urgan ham. Lekin bu haqda ota-onamizga aytmaganmiz, xatomizdan xulosa qilganmiz".

"Bir kuni sinfda sho'xlik qilganim uchun o'qituvchimiz yuzimga bir tirsaki urgandi, uyga kelib aytganimda, onamdan yana bir tirsaki yegandim, shundan keyin o'qituvchilarim haqida uyga gap olib kelmaydigan bo'lganman".

"To'yxona eshigi oldida o'qituvchimiz turganini ko'rib, u kishining oldini kesib o'tishni o'ylab, to'yga kirmaganmiz".

Ko'pchiligimizning bolaligimizda bunday voqea-hodisalar bo'lgan. Maktab, o'qituvchilarimiz bilan bog'liq shunday xotiralarimiz bor. Avvallari o'qituvchilarga nisbatan o'quvchilar, ota-onalarning ham muomala, munosabati boshqacha, hurmat-e'tibor, izzat-ikrom bor edi.

Keyin esa latfada kulgiga olingan, aslida fojiga teng holatga kelib qoldik. O'qituvchining nafaqat maoshi kamaydi, balki jamiyatdagi obro'-e'tibori ham pasayib ketdi. Budgetdan oylik olishi pesh qilinib, muallimlar paxta yig'im-terimidan tashqari, mahalladagi qanday yumush bo'lsa, hammasiga jalb etildi, hatto uy qurdi. Oqibatda o'qituvchilar boshqa ishning boshini tutishga majbur bo'ldi, ta'lim muassasalaridan ketdi. Kelajakda o'qituvchi bo'laman, deyidigan yoshlar kamaydi, pedagogik orzu qilinmaydigan kasblar qatoriga tushib qoldi.

Bugun bunday holatlar deyarli yo'qoldi. Davlat tomonidan ta'limga, soha vakillariga munosabat o'zgardi, e'tibor kuchaydi. Lekin ayrim kishilarning, qaysiki, hamma narsani faqat pul, boylik bilan o'lchaydigan odamlarning maktabga, o'qituvchiga munosabati o'zgar-mayapti. Aynan shunday toifa tufayli

Mulohaza uchun mavzu

ILMLILAR QADR TOPSA, TA'LIM SIFATI OSHADI

yuqorida qayd etganimiz kabi o'qituvchi, murabbiylarga past nazar bilan qarash, ularning qadriini yerga uradigan holatlar uchraib turibdi. Buyam albatta, vaqtincha. Jamiyatda o'qituvchining qadr-qimmatini oshgani sari bunday holatlarga ham barham beriladi, kerak bo'lsa, qonuniy ta'sir choralarini ko'riladi.

Taraqqiy etgan yoki rivojlanayotgan davlatlar haqida so'z borganda, ularning muvaffaqiyatiga ta'limga e'tibor kuchaygani asosiy omillar qatorida tilga olinadi. O'qituvchi mehnatiga munosib haq to'langani, obro'-e'tibori yuqori o'ringa qo'yilgani misol qilib keltiriladi.

Bizda ham bugun shunday yo'l tutilmoqda. Ta'lim sohasida xalqaro tajribalar, rivojlangan davlatlar ish uslubini o'zlashtirilmoqda. Bundan quvonish kerak, albatta. Endi o'zimiz ham shunga mos ish tutishimiz, farzandlarimiz o'qishiga, maktab va oliy o'quv yurtlariga, o'qituvchi va murabbiylarga munosabatni o'zgartirishimiz lozim. Qachonki, o'zimiz maktabning farzandimiz kelajagiga paydevor qo'yiladigan maskan ekanligini anglasak, qadrlasak, farzandimizdan ham shunday munosabatni kutsak yarashadi.

Aksincha, "Maktabingga bugun bor-may qo'ya qolsang ham bo'ladi" yoki "Muallimning o'rgatgani bilan olim bo'larmiding" deb tursak, bolamizning maktabga, o'qituvchilariga bepisandligi biznikidan kam bo'lmaydi.

Yana bir masala. O'qituvchilikka, boshqa joylarda ish bo'lmay qolganda ishlaydigan, hamma uddalashi mumkin bo'lgan kasb, deb qaramaslik kerak. Tan olaylik, haligacha birorta oliy o'quv yurtini tanlashda "Hech bo'lmasa maktabda o'qituvchi bo'ladi" degan tushunchadan voz kechganimiz yo'q. Vaholanki, ayrim kasb, mutaxassisliklarga o'qishga, ishga

qabul qilishda talabgoring kasbiy layoqati bilan birga jismoniy sog'lomligidan ruhiy salomatligigicha o'rganilgani singari ta'limning qaysi bo'g'inida bo'lishidan qat'i nazar, o'qituvchilikka, murabbiylikka ishga qabul qilishda ham shunday yo'l tutish kerakdir.

Samarqanddagi oliy o'quv yurtlaridan birining rektori tibbiyot va pedagogika yo'nalishlari bo'yicha o'qishga qabul qilishda "super kontrakt", ya'ni o'qishga kirish uchun yetarli ball to'play olmagan abituriyentlarni tabaqalashtirilgan to'lov shartnoma asosida o'qishga qabul qilishdan voz kechish kerakligini ta'kidlagandi. To'g'ri talab. Inson salomatligi uchun tibbiyot xodimining bilimi bo'lishi qanchalik muhim bo'lsa, bolalarga ta'lim-tarbiya beradigan pedagogning ham mas'uliyati vrachlarnikidan kam emas.

Yana xorij tajribasi haqida yozishga majburmiz. Yaponiya, Finlandiya va boshqa bir qator davlatlarda o'qituvchi bo'lish, ta'lim muassasasiga rahbarlik qilish uchun litsenziya olish talabi mavjud ekan. Mutaxassislik diplomi bo'lsa-da, litsenziyasi bo'lmasa, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga yo'l qo'yilmaydi. Xuddi shunday rahbarlik salohiyati yetarli bo'lmasa, maktabga direktorlik qilolmaydi. Bizda ham shunday tizimni joriy etishga kirishilmoqda. Afsuski, bu oson kechmayapti. Birgina misol, xorijiy til o'qituvchilaridan chet tilini bilish darajasi bo'yicha milliy va xalqaro sertifikat olish talabi qo'yilganda qancha muhokama, munozara bo'ldi? Lekin baribir xalqaro andozalarga mos ta'lim tizimiga o'tar ekanmiz, bunday talablar kuchayib bora-veradi. Bunga o'qituvchilar ham, ota-onalar ham tayyor bo'lishi lozim.

G'olib HASANOV.

"Yangi nafas"da yangi nomlar

Navro'z umumxalq bayrami arafasida mamlakatimiz bo'ylab tashkil etilgan "Yangi nafas" ommaviy yugurish marafoni Samarqandda ham yuqori saviyada o'tkazildi.

"Buyuk lpak yo'li" xalqaro turizm markazida "Bir vatanda, bir vaqtda, bir masofaga, bir maqsadda — birga yuguramiz" shiori ostida tashkil etilgan marafonda sakkiz mingga yaqin sportsevar qatnashdi.

Ishirokchilar 3 kilometr masofani bosib o'tdi. Erkaklar o'rtasidagi bahsda ishtixonlik havaskor sportchi Siroj Ravshanov finishga birinchi bo'lib yetib keldi. Ikkinchi o'rinni oqdaryolik sportchi Uchqun Aktamov qo'lga kiritgan bo'lsa, uchinchi o'rin pastdarg'omlik sportchi Sherbek Hayitovga nasib etdi.

Qizlar o'rtasidagi bahsda pastdarg'omlik sportchilar Zuhra Qurbonova, Farangiz Alimova va Elnoz Mahmaraimova g'oliblar qatoridan joy oldi.

Musobaqada imkoniyati cheklangan fuqarolar hamda "Eng yoshi katta ishtirokchi" va "Eng yosh ishtirokchi" nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar aniqlanib, diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

F.RO'ZIBOYEV.



SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

14-MART Barot BOYQOBILOV - (1937-2006) Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi-ning davlat mukofoti sohibi.

Nodir JONUZOQ - 1976-yilda Bulung'ur tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

15-MART O'tkir RAHMAT - 1948-yilda Toyloq tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, Xalqaro Cho'lpon mukofoti sohibi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Botir USMONOV - 1984-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi. "O'zbekiston iftixori" ko'krak nishoni sohibi.

Yaqinda pochtdan qo'ng'iroq qilib, mening nomimga pochta kelganini, olib ketishimni aytishdi. Birozdan so'ng aytilgan manzilga bordim. Qo'ng'iroq qilsam, manzilidan biroz o'tibsi orqaga qayting, dedi. Orqaga qaytib pochtagacha qayta aloqaga chiqsam, "Mening ish vaqtim tugadi, ishdan ketdim, endi boshqa xuni kelasiz", deb qoldi. Kech qolibmanmi deb soatga qararasam, 16:00, ish vaqti hali tugamaganini eslatdim. "Sovuq xonada ertalabdan bir o'zim o'tiribman, men ketdim, endi qaytmayman", dedi. To'g'ri, o'sha kunlari havo sovuq edi, pochta xizmatchisini tushunaman. Lekin meni hayron qoldirgani, mijozni u yoqdan bu yoqqa boring, deb sarson qilish u ayolga nega kerak bo'ldi? Ketar ekan, mijozni sovuqda chaqirib nima qiladi? Oradan uch kun o'tgach pochtdan yana qo'ng'iroq qilib pochtdan olib ketishimni tayinlashdi. Har qalay ikkinchi safar jo'natmani olish nasib qildi.

To'rt kun deyishdi, lekin o'n kun kutdim

Ya'ni 10 kun deganda pochta yetib keldi. Lekin pochtdan yetkazib berish xizmatidan ko'nglim to'lmadi. Qo'shni viloyatga jo'natma yuborganimda ham 10 - 14 kunda yetib borgandi. Umuman, bugun pochta xizmati orqali xat va jo'natmalarni jo'natishda aholiga qanday qulayliklar bor? Shu haqda bilish uchun pochtaga bordim.

Samarqand shahrida 23 ta aloqa bo'limi faoliyat olib bormoqda, - deydi "O'zbekiston pochta" viloyat bo'limi xat, banderol bo'yicha nazoratchi operator Lola Hasanova. - Dunyo bo'yicha 58 ta davlatga xat, jo'natmalar yuborish imkoni bor. Bugungi davr talabiga ko'ra, hozirda pochtdani shtrix kodi orqali yuboruvchi ham, oluvchi ham onlayn kuzatib tursa bo'ladi. Mazkur xizmat UZPOST platformasi orqali amalga oshiriladi. Xatning necha kunda yetib borishi hech qayerda ko'rsatilmagan, muddat belgilanmagan. Pochta viloyatlarga 3-4 kunda yetib boradi, chet davlatga yuborishda bir oy muddat, deymiz. Ammo 12 - 15 kunda ham yetib borgan paytlar bo'ladi.

Hozirda yurtimizda hususiy pochtdalar ham faoliyat olib bormoqda. Xo'sh, hususiy pochtdalarda bu masalada qanday farqli jihatlari bor? - "Express mail universal" pochta xizmati 2016-yilda ochilgan, - deydi mazkur korxonada vakili Farruxjon Odinayev. - Samarqand viloyatida ikkita



ing o'z narx-navosi bor.

Jo'natmalar ham qaysi davlatga yuborilishiga qarab narxlanadi. Misol uchun, Rossiya davlatiga poyezd orqali jo'natma yuborish uchun bir kilogramiga 125 ming so'm to'lansa, 10 kilogramm jo'natma narxi 818 ming so'm bo'ladi. Agar mijoz aviajo'natma yuboraman desa, 10 kilogrammi 951 ming so'm bo'ladi. Jo'natmani uyga yetkazib berish xizmati ham mavjud. Pochtalarni saqlash muddati bir oy.

Hozirda yurtimizda hususiy pochtdalar ham faoliyat olib bormoqda. Xo'sh, hususiy pochtdalarda bu masalada qanday farqli jihatlari bor?

- "Express mail universal" pochta xizmati 2016-yilda ochilgan, - deydi mazkur korxonada vakili Farruxjon Odinayev. - Samarqand viloyatida ikkita

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 628 nusxada chop etildi. Buyurtma 138. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonada manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

